

**TADBIRKORLIKNI QO’LLAB QUVVATLASH MEXANIZMLARI
VA TAKOMILASHTIRISH YO’LLARI****Malikova Gulhayo Turdali qizi**

Iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu tezisda O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlikni qo‘llab quvvatlashning turli xil mexanizmlari, va takomillashtiri yo‘llari shuningdek jumladan, biznesni qo‘llab-quvvatlovchi davlat qonunlari, tadbirkorlarga beriladigan soliq imtiyozlari, ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutuvchi davlat dasturlari, strategiyalari haqida so‘z boradi. Shuningdek, biznesni litsenziyalashda administrativ tizimning soddalashtirilishi va tadbirkorlik subyektlariga yordam ko‘rsatuvchi huquqiy institutlarning faoliyati ko‘rib chiqiladi. Tezisda ushbu sohani yanada rivojlantirishga qaratilgan takliflar ham berilgan.

Kalit so‘zlar: Tadbirkorlik subyektlari, subsidiya, imtiyozlar, moliyaviy mablag‘lar, soliq imtiyozi, qo‘shma korxonalar, daromad solig‘i, davlat mulki, imtiyozlarni maqbullashtirish, moliyaviy shaffoflik, monitoring.

Davlatlarda jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi, barqarorligi, gullab-yashnashi va kambag‘allikni qisqartirishda xizmat qiluvchi eng muhim omillardan biri bu tadbirkorlik hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda, so‘ngi yillarda davlatimizda tadbirkorlikni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda tadbirkorlikni qo‘llab quvvatlash faoliyatiga alohida e‘tibor qaratilib kelinmoqda va tijorat banklarining ushbu faoliyat turida ishtiroki qo‘llab-quvvatlanib kelinmoqda: Prezidentimiz ta’kidlab o‘tganlaridek¹, “Tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va

¹ 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning harakatlar strategiyasi



kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi institutining samarali faoliyatini yo'lga qo'yish". Shu boisdan, so'nggi yillarda mamlakatimizda ayollar tadbirkorligini qo'llab quvvatlash faoliyatiga rivojlantirish maqsadida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Sababi, tadbirkorlik nafaqat xalqning farovon yashashiga yordam beradi, balki davlatning iqtisodiy o'sishida ham alohida rol o'ynaydi. Uni qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlarni yaratish va tadbirkorlarga imtiyozlar beruvchi, faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarni qabul qilish ushbu sohani takomillashtirishning kalitidir.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash deganda biznes subyektlarining faoliyat olib borishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish tushuniladi. Bu narsa birinchi navbatda tadbirkorlik faoliyatini tartibga keltiruvchi farmonlar, qarorlar va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratib beruvchi qonunlarning mavjudligi, ya'ni korxonalarni ro'yxatdan o'tish jarayonining qisqa va oddiy bo'lishi; soliq qonunchiligini takomillashtirish; qo'shma korxonalar faoliyatini rivojlantirishdan iborat.

O'zbekistonda tadbirkorlar uchun imtiyozlar davlat Konstitutsiyasida belgilab berilgan. Unga ko'ra tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag'larni erkin harakatlantirishga, bank operatsiyalari va hisobvaraqlarni sirtutishga haqlidir. Bulardan tashqari turli toifadagi tadbirkorlarga, masalan ayrimlariga davlat mulki ijara to'lovidan ozod etilsa, yana ayrim tadbirkorlarning ishchilarining daromad solig'i qaytarib beriladi. Shuningdek, kasanachilikni tashkil etgan tadbirkorlar, tayyor mebel mahsulotini eksport qiluvchi tadbirkorlar kabi har xil tovarlar va xizmatlarni yo'lga qo'ygan tadbirkorlarga ham maxsus imtiyozlar mavjud. Bunday imtiyozlarga mol-mulkni sug'urta qilish xarajatlarining bir qismi qoplab berish, foyda solig'i 1 foiz etib belgilash kabi boshqa bir nechta imtiyozlar kiradi.

TAKOMILASHTIRISH YO'LLARI-Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy, axborot, maslahat va ma'rifiy yordamga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi



zarur. Moliyalashtirishdan foydalanishni soddalashtirish, qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari bo'yicha ma'lumotlardan foydalanishni ta'minlash, biznes asoslarini o'rgatish va infratuzilmani, jumladan markazlarni rivojlantirish muhim.

Tadbirkorlik faoliyatini boshlashdagi ilk qadam;



Tadbirkorlikda biznesdagi qiyinchiliklarga yolg'iz duch kelishlari shart emas. Aloqada bo'lish va qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy yordam, murabbiylik dasturlari, tarmoq guruhlari va biznes treninglaridan foydalaning. Biznes ustozlari qo'llab-quvvatlash va hissiy dalda berish, shuningdek, yangi imkoniyatlar ochishi mumkin.

Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun asosiy qadamlar

Mikrokreditlarni kengayish; Aholini biznes asoslariga ommali o'rgatish; Qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish; Biznesni uzoq muddatli davlat buyurumlari orqali qo'llab-quvvatlash.

Muvaffaqiyatli tadbirkor bo'lish uchun nima qilish kerak?

Shunday qilib, o'z biznesingizni boshlashingizga yordam beradigan ko'nikmalar:



Jamoa yaratish; Bunga hammuassislarni tanlash

Kapitalni taqsimlash,

Xodimlarni yollash kiradi; Etakchilik; Jamoa boshqaruvi

Sotish; Marketing; Moliya

Natija uchun 100% javobgarlik; Ogohlik.

Shunday qilib, imtiyozlar, subsidiyalar, preferensiyalar tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shunga qaramay bu jarayonlarni oqilona va adolatli yo‘lga qo‘yish, to‘g‘ri tadbiriq etish lozim. Buning uchun esa imtiyozlar berish tartibini qat’iy huquqiy tartibga solish talab etiladi. Bu orqali davlat resurslari maqsadli va samarali taqsimlanadi, biznes subyektlari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhiti yaratiladi, shuningdek moliyaviy shaffoflik ham ta’minlanadi. Huquqiy tartibga solish natijalarni kuzatib borish va monitoring tizimini tadbiriq etish imkoniyatini ham beradi. Natijalarga asoslangan yondashuv tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun yangi strategiyalar ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. Gazeta.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori–Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarni taqdimetish tartiblarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shim chachora-tadbirlar to‘g‘risida. PQ-193-son,
4. Qodirova Nozima Rasulovna –O‘zbekistonda tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini yaratishning ahamiyati.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14268813> 2024. <https://lex.uz/ru/docs/-6937347>